INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN GEOGRAFIYA VA MATEMATIKA MASHG'ULOTIDA FOYDALANISH MASALALARI.

Davlatova Maftuna Sadriddin qizi - Andijon University of Economics and Pedagogy Boshlang'ich ta'lim 1- kurs talabasi
E-mail:maftunaolimova853@gmali.com

Annotatsiya: Innovatsion ta'lim texnolgiyaning turlari va ulardan geografiya va matematika fanlarida foydalanish xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Innovatsiya, novatsiya, innovator, innovatsion ta'lim, ta'lim innovatsiyalari

Lug'aviy jihatdan "Innovatsiya" tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda ("innovation") "yangilik kiritish" degan ma'noni anglatadi. "Innovatsiya" tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Innovatsiya – muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyatdir.

"O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi"da ko'rsatilishicha, innovatsiya quyidagicha mazmun va tushunchalarga ega: "Innovatsiya (ingl. "innovationas" – kiritilgan yangilik, ixtiro) – 1) texnika va texnologiya avlodlarini almashtirishni ta'minlash uchun iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar; 2) ilmiy-texnika yutuqlari va ilg'or tajribalarga asoslangaan texnika, texnologiya, boshqarish va mehnatni tashkil etish kabi sohalardagi yangiliklar, shuningdek, ularning turli sohalar va faoliyat doiralarida qo'llanishi"[1].

A.I.Prigojinning fikriga ko'ra, innovatsiya maqsadga muvofiq ravishda muayyan ijtimoiy birlik – tashkilot, aholi, jamiyat, guruhga nisbatan munosabatga yangicha yondashish, bu munosabatni bir qadar turg'un elementlar bilan boyitib borish tushunilishi lozim. Bu o'rinda anglanadiki, muallifning qarashlari bevosita ijtimoiy munosabatlar, ularga nisbatan innovatsion yondashish mohiyatini ifodalaydi. Shundan kelib chiqqan holda har bir shaxs fuqaro, mutaxassis, rahbar, xodim, qolaversa, turli ijtimoiy munosabatlar jarayonining ishtirokchisi sifatida o'ziga xos innovator faoliyatni tashkil etadi.

Amerikalik psixolog E.Rodjers o'z tadqiqotlarida innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning ijtimoiy-psixologik jihatlari, ijtimoiy munosabatlarga yangilik kiritish, bu jarayonda ishtirok etuvchi shaxslarning toifalari, ularning yangilikka bo'lgan munosabatlari, yangilikni qabul qilish, mohiyatini anglashga bo'lgan tayyorlik darajasi hamda muayyan shaxslar toifalari o'rtasidagi innovatsion xarakterga ega ijtimoiy munosabatlarning tasnifi masalalarini o'rgangan. Innovatsion ta'lim (ingl. "innovatsion" – yangilik kiritish, ixtiro) – ta'lim oluvchida yangi g'oya,

me’yor, qoidalarni yaratish, o‘zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg‘or g‘oyalar, me’yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta’limdir. Innovatsion ta’lim jarayonida qo‘llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta’lim texnologiyalari yoki ta’lim innovatsiyalari deb nomlanadi.

Innovatsion ta’limni geografiya darslarida foydalanish samarali deb o‘ylayman. Sababi bunda yangilik kiritish ya’ni ixtiro qilish metodni qo‘llash, geograf olimlar tomonidan bildirilgan nazariya va ilmiy g‘oyalarni o‘rganish o‘quvchiga qulay bo‘ladi. Innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari quyidagilar: Muammoli ta'lim o‘quvchilarning mustaqilligini faollashtirishi kerak bo‘lgan o‘quv faoliyatida turli xil muammoli vaziyatlarni yaratishga asoslangan. Natijada tahliliy va ijodiy qobiliyatlar va qobiliyatlar rivojlanadi. Ko‘p darajali trening o‘qituvchiga zaif o‘quvchilarga yordam berishga va kuchli tomonlarga e'tibor berishga yordam beradi. Ushbu uslub ko‘proq qobiliyatli o‘quvchilarni ta'lim sohasida chuqurroq rivojlanish istagini vujudga keltiradi, qolgan o‘quvchilar esa akademik muvaffaqiyatlarga erishadilar, bu esa o‘rganish motivatsiyasini oshiradi. Loyihalash asosida o‘qitish usullari maktab o‘quvchilarining ijodiy salohiyatini rivojlantiradi, ularni ongli ravishda professional va ijtimoiy taqdirni belgilashga majbur qiladi. O‘qitishning tadqiqot usullari talabalarga o‘zlarini qiziqtirgan muammolarni mustaqil o‘rganishga va ularni hal qilish yo‘llarini taklif qilishga imkon beradi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bu kompyuter va Internetdan foydalanish orqali bilimlarni cheksiz boyitishdir. Ta'lim tizimiga yangi usul va texnologiyalarni tatbiq etish umuman an'anaviy o‘qitish usullarini bekor qilishni anglatmaydi. Innovatsiya butun o‘quv jarayonining ajralmas qismidir Ta’lim innovatsiyalari – ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar. Innovatsiyalarning har qanday yangilikdan farqi shundaki, u boshqarish va nazorat qilishga imkon beradigan o‘zgaruvchan mexanizmga ega bo‘lishi zarur. Barcha sohalarda bo‘lgani kabi ta’limda ham “novatsiya”, “innovatsiya” hamda ularning mohiyatini ifodalovchi faoliyat to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Agar faoliyat qisqa muddatli, yaxlit tizim xususiyatiga ega bo‘lib, faqatgina tizimdagi ayrim elementlarni o‘zgartirishga xizmat qilsa u novatsiya (yangilanish) deb yuritiladi.Bunga geografiya o‘quv darslarida 10-sinfda o‘tiladigan bashorat mavzusini misol tariqasida olsa bo‘ladi. Sababi bashoratning bir nechta turlari mavjud bo‘lib: ular qisqa muddatli, o‘rta muddatli, uzoq muddatli va hokazolarga bo‘linadi. Bordi-yu, faoliyat ma’lum konseptual yondashasosidaamalga oshirilib, uning natijasi muayyan tizimning rivojlanishiga yoki uni tubdan o‘zgartirishga xizmat qilsa, u innovatsiya (yangilik kiritish) deb ataladi. Bunda esa bevosita dala amaliyoti bilan bog‘liq. Chunki dala amaliyoti albatta kuzatish bilan birgalikda konseptual ya’ni muyyan tizimning rivojlanishiga xizmat qiladigan konsepsiya yoki nazariyalar

yaratadi. Ilmiy adabiyotlarda "novatsiya" (yangilanish, yangilik) hamda "innovatsiya" (yangilik kiritish) tushunchalarining bir-biridan farqlanishiga alohida e'tibor qaratiladi.

Misol uchun, V.I.Zagvyazinskiyning e'tirof etishicha, "yangi", "yangilik" tushunchasi nafaqat muayyan g'oyani, balki hali amaliyotda foydalanilmagan yondashuv, metod hamda texnologiyalarni ifodalaydi. Ammo bunda jarayon elementlari yaxlit yoki alohida olingan elementlaran iborat bo'lib, o'zgarib turuvchi sharoit va vaziyatda ta'lim va tarbiya vazifalarini samarali hal etish g'oyalarini o'zida aks ettiradi.

Darhaqiqat, yangilik – vosita sanalib, u aksariyat holatlarda yangi metod, metodika, texnologiya va b. ko'rinishida namoyon bo'ladi Maktab ta'limining bugungi vazifasi, o'qituvchilarning yangi innovatsion axborot texnologiyalari orqali dars davomida samarali foydalanib, o'quvchilarga ma'lumotlarni aniq va tushunarli qilib yetkazib berish hisoblanadi. Shuning uchun ham dars davomida o'qituvchi o'quvchilarning matematika fanini tushunarli, aniq qilib o'rganib borishi uchun ham, darslarni yangi innovatsion zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib tashkil etish va o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda aniq fanlarning o'qitilish sifati va samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalarni zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlari asosida 3 turdagi o'quv mashg'lotlariga: ya'ni ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda keltirilganlarni kompleks holda qo'llash tavsiya etiladi. Zamonaviy metodlar va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar o'quvchilarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ularning qobilyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo'lish hamda ijobiy kasbiy fazilatlarni tarbiyalashga yordam beradi. Jumladan, o'quv-tarbiyaviy jarayonini ilmiy asosda qurishga yo'naltirilgan, o'qitishning axborotli vositalaridan va didaktik materiallardan faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikda faoliyatiga zamin yaratadi.

O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni ifodalovchi hamkorlik pedagogikasiga tayanib talabalarning birgalikda ta'lim olishlari amalga oshiriladi. Talabalarning hamkorlikda ta'lim olishlari, ta'lim jarayonlarini loyihalashtirish, talabalar bilan ishlashni loyihalashtirish kabilar zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy metodlari hisoblanadi. O'quv-tarbiya jarayonida vujudga kelgan yangi pedagogik munosabatlar mazkur jarayonda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llashni taqozo qiladi. Pedagogika fani va amaliyotida turli xil yondashuvlar qo'llaniladi. Og'zaki-ko'rgazmali, tadqiqiy, izlanuvchan, tizimli, funksional, kompleks, texnologik, muammoli-unsurli, faoliyatli yondashuvlar respublikamiz o'quv yurtlarida keng tarqalgan. Asosan o'qituvchining axborot berishi, o'quvchi-talabalarning bilimni qabul qilishi, to'plashi va xotirasida saqlashi bilan

belgilanadi. "Bilim" tushunchasi xotirada saqlanadigan axborot ma'nosida tushuniladi. Bunday bilimlar, ularni qo‘llay olish ko‘nikmalari orqali tekshirib ko‘riladi. Tadqiqiy-ijodiy yondashuv: Ta'limning maqsadi talabada biror muammoni yechish qobiliyatini o‘stirish, yangi bilim va tajribani mustaqil ravishda o‘zlashtirish, harakatning yangi zamonaviy usullarini topish va tashabbus ko‘rsatishni nazarda tutadi. Bu yo‘nalishda asosan, pedagog talabaning o‘quv faoliyatiga rag‘batlantiruvchi usulda rahbarlik qiladi, shaxsiy tashabbusini qo‘llab-quvvatlab, u bilan hamkorlik qiladi hamda uning fikr va qiziqishlarini doimo nazarda tutadi. Tadqiqiy-ijodiy yondashuvning ta'lim tizimida o‘z o‘rni bor va u o‘z joyida qo‘llanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat" Toshkent "Iqtisod moliya" 2009.

2. Ziyaqulova Maftuna Shuhrat qizi “ Pedagogik kreativlik bo‘lg‘usi o‘qituvchilarni innovatsiyon faoliyatga tayyorlash jarayoni ” Andijon Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi 2020-yil 2-qism

3. O‘.Tolipov, D.Ro‘ziyeva.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat

4. Olimov Q.T., Sayidaxmedova M.S., Pedogogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. T.,- 2012.- 300b

5. Q.T.Olimov, L.P.Uzoqova. Maxsus fanlarni o‘qitish metodikasi. Kasb – hunar kollejlari o‘qituvchilari uchun metodik o‘quv qo‘llanma Toshkent: Fan, 2004